



**JANUBIY OROLBO‘YI BRONZA VA ILK TEMIR DAVRI
MADANIYATLARI: TABIIY MUHIT, TARIXSHUNOSLIK VA
ARXEOLOGIK JARAYONLAR.**

*Masharipov Tohirjon Baxrom o‘g‘li – Urganch innovatsion universiteti
magistranti.*

Annotatsiya. Mazkur maqolada Janubiy Orolbo‘yi hududining tabiiy-geografik sharoiti, Quyi Amudaryo gidrografik tizimining tarixiy bosqichlari hamda bronza va ilk temir davri madaniyatlarining shakllanishi va rivojlanish jarayonlari kompleks tarzda tahlil qilinadi. Tadqiqot Kaltaminor, Suvorgan, Tozabog‘yob, Amirobod va Quyisoy madaniyatlariga oid arxeologik materiallar asosida olib borilib, ularning xo‘jalik tiplari, moddiy madaniyati, madaniy vorislik va o‘zaro ta‘sir masalalari tarixshunoslik yondashuvi orqali yoritiladi. Shuningdek, ilk saklar va Tagisken majmualari misolida Janubiy Orolbo‘yidagi etnik va ijtimoiy jarayonlarning murakkabligi ilmiy nuqtayi nazardan baholanadi.

Kalit so‘zlar: Janubiy Orolbo‘yi, Quyi Amudaryo, bronza davri, ilk temir davri, Suvorgan, Tozabog‘yob, Amirobod, Quyisoy, saklar.

Культуры бронзового и раннего железного веков Южного Приаралья: природная среда, историография и археологические процессы

Аннотация. В данной статье комплексно анализируются природно-географические условия территории Южного Приаралья, исторические этапы формирования гидрографической системы Нижней Амударьи, а также процессы становления и развития культур бронзового и раннего железного веков. Исследование основано на археологических материалах, относящихся к культурам Кальтаминар, Суярган, Тазабагъяб, Амирабад и Куюсай, и направлено на изучение их хозяйственных типов, материальной культуры, культурной преемственности и межкультурных взаимодействий в историографическом контексте. Кроме того, на примере раннесакских памятников и комплекса Тагискен с научной точки зрения оценивается



сложность этнических и социальных процессов, протекавших в Южном Приаралье.

Ключевые слова: Южное Приаралье, Нижняя Амударья, бронзовый век, ранний железный век, Суярган, Тазабагьяб, Амирабад, Куюсай, саки.

Bronze and Early Iron Age Cultures of the Southern Aral Sea Region: Natural Environment, Historiography, and Archaeological Processes

Abstract. *This article provides a comprehensive analysis of the natural and geographical conditions of the Southern Aral Sea region, the historical stages of development of the Lower Amu Darya hydrological system, and the processes of formation and evolution of Bronze and Early Iron Age cultures. The study is based on archaeological materials related to the Kaltaminor, Suyorgan, Tazabagyab, Amirabad, and Kuyisai cultures, examining their economic systems, material culture, cultural continuity, and intercultural interactions from a historiographical perspective. In addition, the complexity of ethnic and social processes in the Southern Aral Sea region is scientifically assessed through the example of early Saka monuments and the Tagisken complex.*

Keywords: *Southern Aral Sea region, Lower Amu Darya, Bronze Age, Early Iron Age, Suyorgan, Tazabagyab, Amirabad, Kuyisai, Saka.*

Kirish. Janubiy Orolbo‘yi Markaziy Osiyoning qadimgi tarixida alohida o‘rin egallagan tarixiy-madaniy hududlardan biridir. Ushbu mintqa Quyi Amudaryoning o‘ng va so‘l sohillarini qamrab olib, shimolda Ustyurt chinki, sharqda Qizilqum, janubda Unguzorti Qoraqumi va g‘arbda Sariqamish pasttekisligi bilan chegaralangan [1]. Hududning tabiiy-geografik xususiyatlari, xususan, daryo o‘zanlarining tez-tez o‘zgarib turishi, ko‘l va botqoqliklarning paydo bo‘lishi qadimgi aholi turmush tarziga bevosita ta‘sir ko‘rsatgan.

Quyi Amudaryo gidrografiyasi masalasi Janubiy Orolbo‘yi bronza va ilk temir davri tarixini o‘rganishda muhim metodologik ahamiyatga ega. Tadqiqotchilarning fikriga ko‘ra, Amudaryo so‘nggi paleolit davridan boshlab turli yo‘nalishlarda oqib kelgan bo‘lib, bu holat aholi joylashuvi va xo‘jalik faoliyatining shakllanishida hal qiluvchi rol o‘ynagan [2]. Oqchadaryo, Sariqamishbo‘yi va Uzboy



o'zanlari faoliyatining turli davrlardagi o'zgarishlari arxeologik manzara va madaniy jarayonlarning dinamikasini belgilab bergan [6].

Adabiyotlar tahlili. Janubiy Orolbo'yi arxeologik tadqiqotlari XX asrning o'rtalaridan boshlab ilmiy muomalaga tizimli ravishda kiritildi. Ushbu yo'nalishdagi fundamental ishlar S.P. Tolstov rahbarligidagi Xorazm arxeologik-etnografik ekspeditsiyasi faoliyati bilan bog'liq bo'lib, mintaqaning neolitdan to ilk temir davrigacha bo'lgan tarixini yoritishda mustahkam ilmiy asos yaratdi [10], [13]. Tolstov tadqiqotlarida madaniyatlarning xronologiyasi, hududiy tarqalishi va xo'jalik xususiyatlari dastlabki bor ilmiy asosda ishlab chiqildi.

Keyingi yillarda M.A. Itina tomonidan Janubiy Orolbo'yi bronza va ilk temir davri madaniyatlarining ichki rivojlanish bosqichlari batafsil tahlil qilindi [12][16]. U Suvorgan, Tozabog'yob va Amirobod madaniyatlarining xronologik chegaralarini aniqlash bilan birga, ularning o'zaro aloqalari va vorislik masalalariga alohida e'tibor qaratdi.

B.I. Vaynberg tadqiqotlarida Quyisoy madaniyati alohida muammo sifatida ko'tarilib, uning saklar bilan bog'liqligi masalasi keng muhokama qilindi. L.T. Yablonskiy esa saklar antropologiyasi va dafn marosimlarini tahlil qilib, ayrim migratsion gipotezalarga tanqidiy yondashdi. Shu sababli, mintaqadagi etnik jarayonlar masalasi tarixshunoslikda hanuz ochiq muammo bo'lib qolmoqda [17].

Metodologik yondashuv. Tadqiqotda tarixiy-taqqoslash, stratigrafik, tipologik va xronologik tahlil usullari qo'llanildi. Arxeologik materiallar tarixiy manba sifatida baholanib, moddiy madaniyat unsurlari orqali xo'jalik shakllari, ijtimoiy munosabatlar va madaniy aloqalar tahlil qilindi. Kompleks yondashuv hududiy jarayonlarni umumiy Markaziy Osiyo tarixiy kontekstida baholash imkonini berdi.

Tahlil. Neolit davrida Janubiy Orolbo'yi hududida Kaltaminor madaniyati shakllanib, uning xo'jaligi ovchilik va baliqchilikka asoslangan edi. Ko'p sonli baliq suyaklarining topilishi ushbu xo'jalik turining yetakchi o'rinda bo'lganini tasdiqlaydi. Kaltaminor madaniyati an'analari keyingi davrlarda Suvorgan madaniyati shakllanishida muhim rol o'ynagan.



Suvorgan madaniyati arxeologik materiallari uning mahalliy rivojlanish mahsuli ekanini ko'rsatadi. Ushbu madaniyat vakillari yarim yer to'lalarda yashab, ovchilik va baliqchilik bilan shug'ullanganlar. Bronza buyumlarining deyarli uchramasligi Suvorgan madaniyatining dastlabki bosqichlarida ishlab chiqaruvchi xo'jalik rivojlanmaganini ko'rsatadi[15].

Mil. avv. II mingyillik o'rtalarida Janubiy Orolbo'yi hududida Tozabog'yob madaniyati shakllanadi. Ushbu madaniyatda dasht hududlaridan kirib kelgan Andronovo va Spybnaya an'analari mahalliy Suvorgan unsurlari bilan qorishib ketgan. Turar joylarning yarim yer to'la shaklda bo'lishi, sopol idishlarning qo'lda yasalishi va geometrik naqshlar bilan bezatilishi ushbu madaniyatning asosiy belgilaridir.

So'nggi bronza davrida Amirobod madaniyati rivojlanib, unda chorvachilik xo'jaligi yetakchi o'rin egallaydi. Uy-joylar maydonining kattalashuvi va bronza buyumlarining xilma-xilligi jamiyatda ijtimoiy tabaqalanish jarayonlari kuchayganini ko'rsatadi.

Ilk temir davriga kelib Quysisoy madaniyati shakllanadi. Arxeologik materiallar bu madaniyatning asosan chorvachilikka moslashganligini ko'rsatadi. Tagisken majmualarida aniqlangan monumental dafn inshootlari esa ijtimoiy tuzilmaning murakkablashganidan dalolat beradi. Dafn marosimlari borasida krematsiya masalasi tarixshunoslikda bahsli bo'lib qolmoqda[12].

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, Janubiy Orolbo'yi bronza va ilk temir davrida uzluksiz va murakkab madaniy rivojlanish jarayonini boshdan kechirgan. Mahalliy neolit an'analari asosida shakllangan madaniyatlar tashqi ta'sirlar bilan boyib borgan bo'lsa-da, madaniy uzviylik saqlanib qolgan. Arxeologik materiallar mintaqada ichki evolyutsiya va vorislik jarayonlarining ustunligini ko'rsatadi. Ushbu xulosalar Janubiy Orolbo'yi qadimgi tarixini o'rganishda kompleks va ehtiyotkor yondashuv zarurligini yana bir bor tasdiqlaydi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. **Низовья Амударьи, Сарыкамыш, Узбой. История формирования и заселения** // Материалы Хорезмской археолого-этнографической экспедиции. – М.: Наука, 1960. Вып. 3. – 348 с.
2. **Кесь А.С.** Аральское море в голоцене // Этнография и археология Средней Азии. – М.: Наука, 1979. – С. 19–27.
3. **Низовья Амударьи...** – С. 35–39.
4. **Низовья Амударьи...** – С. 35.
5. **Толстов С.П.** По древним дельтам Окса и Яксарта. – М.: Востлит, 1962. – С. 16–17.
6. **Низовья Амударьи...** – С. 17, 21–25.
7. **Виноградова Е.А., Бижанов Е.Б.** Первые палеолитические находки с юго-восточного Устюрта // Археологические открытия 1977 г. – М.: Наука, 1978.
8. **Виноградова Е.А.** Первые палеолитические находки в Султануиздаге // Приаралье в древности и средневековье. – М.: ИВЛ РАН, 1998. – С. 74–77.
9. **Бижанов Е.Б.** Мезолитические и неолитические памятники северо-западного Устюрта // Археология Приаралья. – Ташкент: Фан, 1982. Вып. 1. – С. 14–37.
10. **Толстов С.П.** Работы Хорезмской археолого-этнографической экспедиции в 1949–1953 гг. // Труды ХАЭЭ. – М.: Наука, 1958. Т. II. – С. 66–67.
11. **Средняя Азия в эпоху камня и бронзы.** – М.–Л.: Наука, 1966. – 592 с.
12. **Итина М.А.** История степных племен Южного Приаралья. – М.: Наука, 1977. – 276 с.
13. **Толстов С.П.** Древний Хорезм. – М.: МГУ, 1948. – 324 с.
14. **Виноградов А.В.** Неолитические памятники Хорезма // МХЭ. – М.: Наука, 1968. Вып. 8. – С. 125–129.



15. **Никольский Г.В., Радаков Д.В., Лебедев Д.** Остатки рыб из неолитической стоянки Джанбас-кала № 4 // Труды ХАЭ. – М., 1952. Т. I. – С. 205–214.
16. **Итина М.А.** История степных племен Южного Приаралья. – С. 28–29.
17. **Вайнберг Б.И.** Этногеография Турана в древности (VII в. до н.э. – VIII в. н.э.). – М.: ИВЛ РАН, 1999. – 328 с.